

## DISKURS TUSHUNCHASI, TILSHUNOSLIKDA UNING TADQIQI VA GASTRONOMIK DISKURSNING O‘ZIGA XOSLIGI

Munira Muxammadiyeva Aktamovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida eng ko‘p muhokama qilinadigan, serqirra va murakkab tushunchalardan biri bu “diskurs” fenomenidir. Etimologik jihatdan lotincha “discursus” (muhokama qilish, oldinga va orqaga yugurish, harakat) so‘ziga borib taqaluvchi ushbu atama dastlab mantiqiy dalil va isbotli bilimni anglatgan bo‘lsa, bugungi kunda u gumanitar fanlarning chorrahasida joylashgan fundamental konseptga aylandi<sup>1</sup>. Diskursning ushbu kognitiv, ijtimoiy, pragmatik va kommunikativ qirralari uning xususiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan gastronomik diskursni tahlil qilish uchun mustahkam nazariy baza yaratadi. Gastronomik diskurs insonning eng fundamental ehtiyojlaridan biri bo‘lgan oziq-ovqat va ovqatlanish jarayoni atrofida shakllangan murakkab semiotik va lingvomadaniy tizimdir.

**Kalit so‘zlar:** paradigma, diskurs, konsept, kognitiv tilshunoslik, kommunikativ, gastronomik diskurs, semiotika, pragmatika

**Аннотация.** Одним из наиболее обсуждаемых, многогранных и сложных понятий в современной лингвистической парадигме является феномен «дискурса». Этимологически данный термин восходит к латинскому слову «discursus» (обсуждение, движение вперед и назад). Изначально он обозначал логическое рассуждение и доказательное знание, однако в настоящее время превратился в фундаментальное понятие, находящееся на пересечении гуманитарных наук. Когнитивные, социальные, прагматические и коммуникативные аспекты дискурса создают прочную теоретическую основу для анализа одного из его частных

---

<sup>1</sup> Ibotova M.K. Diskurs tushunchasi va unga lingvistik yondashuvlar. – Buxoro: Scientific Progress, 2023. – B. 45.

проявлений — гастроно-мического дискурса. Гастрономический дискурс представляет собой сложную семиотическую и лингвокультурную систему, сформированную вокруг одной из базовых потребностей человека - пищи и процесса питания.

**Ключевые слова:** парадигма, дискурс, концепция, когнитивная лингвистика, коммуникативный, гастрономический дискурс, семиотика, прагматика

**Annotation.** One of the most widely discussed, multifaceted, and complex concepts in modern linguistic paradigms is the phenomenon of “discourse.” Etymologically, this term originates from the Latin word “*discursus*” (discussion, running back and forth, movement). Initially, it denoted logical reasoning and evidence-based knowledge, but today it has evolved into a fundamental concept situated at the intersection of the humanities. The cognitive, social, pragmatic, and communicative aspects of discourse provide a solid theoretical foundation for analyzing one of its specific manifestations — gastronomic discourse. Gastronomic discourse is a complex semiotic and linguocultural system formed around one of the most fundamental human needs: food and the process of eating.

**Keywords:** paradigm, discourse, concept, cognitive linguistics, communicative, gastronomic discourse, semiotics, pragmatics

Ilmiy muomalaga “diskurs” atamasining lingvistik kategoriya sifatida kirib kelishi amerikalik strukturalist olim Zellig Harrisning 1952-yilda nashr etilgan “Discourse Analysis” (Diskurs tahlili) nomli maqolasi bilan bevosita bog‘liqdir. Z.Harris o‘z tadqiqotida tilshunoslikning an’anaviy chegarasi bo‘lgan gapdan yuqori turuvchi, o‘zaro bog‘langan og‘zaki va yozma nutqning formal tahlilini taklif etdi. Uning yondashuviga ko‘ra, diskurs tahlili morfemalarning paydo bo‘lishiga asoslangan rasmiy usul bo‘lib, u matnning qanday qilib grammatik jihatdan tashkil etilganligini ko‘rsatib beradi<sup>2</sup>. Biroq Harrisning yondashuvi asosan sintaktik tuzilmalarga qaratilgan bo‘lib, diskursning

---

<sup>2</sup> Harris Z.S. Discourse Analysis. – Baltimore: Linguistic Society of America, 1952. – B. 1–30.

ijtimoiy va pragmatik qirralarini to‘liq qamrab olmagan edi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida keyingi o‘n yilliklarda diskurs nazariyasi turli falsafiy va lingvistik maktablar tomonidan boyitildi.

Fransuz tilshunosi Emile Benveniste diskurs nazariyasiga subyektivlik tushunchasini olib kirdi. Uning 1966-yilda e‘lon qilingan “Umumiy tilshunoslik muammolari” asarida til va nutq o‘rtasidagi munosabat qayta ko‘rib chiqildi. Benveniste tilni shaxsda shaxsiy tamoyilni amalga oshirish imkoniyati sifatida baholaydi va “men” hamda “sen” qarama-qarshiligining ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, inson aynan til orqali o‘zini subyekt sifatida namoyon qiladi va diskurs bu tilning harakatdagi, muloqotdagi jonli holatidir<sup>3</sup>. Benvenistening ushbu antroposentrik yondashuvi diskursni shunchaki gaplar yig‘indisi emas, balki so‘zlovchining niyati va pozitsiyasi aks etadigan makon sifatida ko‘rishga asos yaratdi. Benvenistening subyektivlikka asoslangan mikrolingvistik yondashuvidan farqli o‘laroq, fransuz faylasufi Michel Foucault diskursni makrosotsial va tarixiy fenomen sifatida talqin qildi. Foucault o‘zining “Bilim arxeologiyasi” (1969) va “Diskurs tartibi” (1971) asarlarida diskursni bilim va ma’noni shakllantiruvchi, tarixiy jihatdan shartlangan ijtimoiy tizim deb ataydi. Foucault uchun diskurs – bu hokimiyat munosabatlari amalga oshadigan, jamiyatdagi narsalarni ifodalashdan ko‘ra ko‘proq ish bajaradigan, ijtimoiy reallikni konstruksiya qiladigan amaliyotdir<sup>4</sup>. Foucault nazariyasida diskurs tilshunoslik chegaralaridan chiqib, umummadaniy va mafkuraviy qurolga aylanadi.

Foucaultning hokimiyat va diskurs o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi g‘oyalari nemis faylasufi Jürgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi bilan o‘ziga xos dialogga kirishadi. Habermas o‘zining ratsional-tanqidiy muloqot konsepsiyasida diskursni strategik (yoki instrumental) harakatdan farqlaydi. Habermasga ko‘ra, haqiqiy kommunikativ harakat o‘zaro tushunishga qaratilgan bo‘lib, unda ishtirokchilar erkin va

---

<sup>3</sup> Benveniste E. Subjectivity in Language. In Problems in General Linguistics. – Miami: University of Miami Press, 1971. – B. 225.

<sup>4</sup> Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – London: Routledge, 1972. – B. 49.

teng huquqli ravishda dalillarni muhokama qiladilar<sup>5</sup>. Agar Foucault diskursda doimo yashirin hokimiyat va nazoratni ko‘rsa, Habermas diskursda emansipatsiya va ijtimoiy kelishuvga erishishning ratsional vositasini ko‘radi. Bu ikki yirik mutafakkirning qarashlari zamonaviy diskurs tahlilida matn ortidagi ijtimoiy niyatlarni ochib berishda muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Diskurs nazariyasining falsafiy poydevorini mustahkamlashda avstriyalik faylasuf Ludwig Wittgensteinning “Til o‘yinlari” nazariyasi ham alohida o‘rin tutadi. Wittgenstein o‘zining “Falsafiy tadqiqotlar” (Philosophische Untersuchungen, 1953) asarida tilning ma’nosi undagi so‘zlarning abstrakt referentlari bilan emas, balki ularning muayyan ijtimoiy hayot shakllaridagi qo‘llanish usuli bilan belgilanishini asosladi. Uning mashhur formulasi – “til o‘yini” – muayyan kontekstda ishtirokchilar tomonidan qabul qilingan qoidalar asosida kechadigan nutq faoliyatini anglatadi<sup>6</sup>. Wittgensteinning ushbu g‘oyasi diskursni shunchaki ma’no uzatish kanali sifatida emas, balki muayyan jamiyat yoki guruh a’zolari tomonidan birgalikda “o‘ynaladigan”, o‘ziga xos qoidalar va kutishlarga ega bo‘lgan ijtimoiy amaliyot sifatida tushunish imkonini beradi. Gastronomik diskurs ushbu nuqtai nazardan o‘ziga xos “til o‘yini” bo‘lib, uning ishtirokchilari (oshpazlar, tanqidchilar, iste’molchilar, food-bloggerlar) o‘zlari mansub madaniy va ijtimoiy kontekst tomonidan belgilangan yashirin qoidalarga amal qiladilar. Masalan, retseptda “tuzni dadilroq soling” degan ko‘rsatma professional oshpazlar uchun bir narsani, uy bekasiga esa boshqa narsani anglatadi – til o‘yining kontekst va tajriba orqali anglanishi aynan mana shu.

Wittgensteinning kontekstualligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir muhim nazariy yondashuv – rus filologi Mixail Baxtinning dialogizm va nutq janrlari konsepsiyasidir. Baxtin o‘zining “Nutq janrlarining muammosi” (1952–1953, nashr 1979) va “Til falsafasiga oid muammolar” kabi asarlarida har bir so‘zlashuvning muqarrar

---

<sup>5</sup> Habermas J. The Theory of Communicative Action, Vol. 1. – Boston: Beacon Press, 1984. – B. 285.

<sup>6</sup> Wittgenstein L. Philosophische Untersuchungen / Philosophical Investigations. – Oxford: Blackwell, 1953. – B. 11-12.

ravishda dialogik ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, har qanday nutq – yozma yoki og’zaki – oldingi nutqlarga munosabat sifatida paydo bo’ladi va kelajakdagi javobi ko’zlab shakllanadi, ya’ni til mohiyatan ko’povozli (polifonik) va ko’p ijtimoiy bo’lib, unda turli ijtimoiy guruhlarining ovozlari “dialogik rezonans” hosil qiladi<sup>7</sup>. Baxtinning nutq janrlari nazariyasiga ko’ra, barcha aloqa shakllari nisbatan barqaror, ko’p takrorlanadigan tipik ifodalash usullariga, ya’ni janrlarga – bo’linadi. Bu janrlar birlamchi (kundalik muloqot, yozishma) va ikkilamchi (roman, ilmiy maqola, retsept) bo’lib, ikkinchilari birinchilarni o’zlashtirib, yangi mazmun kasb etadi. Gastronomik diskurs ushbu nuqtai nazardan alohida qiziqarli tizimni tashkil qiladi: retsept, taomnoma, oziq-ovqat sharhi va food-post Baxtin ma’nosidagi turli janrlarni ifodalaydi va ularning har biri o’ziga xos kommunikativ niyat, uslub, qabul qiluvchi tipi va ijtimoiy-madaniy kontekstni nazarda tutadi. Baxtin ta’kidlaganidek, bir janrdan ikkinchisiga o’tish mahsulot va muloqotchilar o’rtasidagi munosabatni butunlay o’zgartiradi: bir xil taom haqida yozilgan ilmiy maqola va Instagram posti mutlaqo har xil ovoz, ton va natijalarga ega bo’ladi.

Diskurs nazariyasining yana bir muhim poststrukturalist yo’nalishi – Argentina-Britaniya siyosiy faylasuflari Ernesto Laclau va Shantal Muffning diskurs nazariyasidir. Ularning “Gegemonlik va sotsialist strategiyasi” (Hegemony and Socialist Strategy, 1985) va keyingi asarlari diskursni ijtimoiy identitet va siyosiy subektivliklarni qurish jarayoni sifatida talqin qildi. Laclau va Muffe nazariyasida “nodal nuqtalar” tushunchasi markaziy ahamiyatga ega: bu so’zlar yoki iboralar ma’lum bir diskursiv maydonda alohida ma’no yukiga ega bo’lib, atrofidagi ma’nolarni tashkil etuvchi markaz vazifasini bajaradi<sup>8</sup>. Gastronomik diskursga tatbiq etilganda, “milliy taom” (masalan, o’zbek palovi), “halol” yoki “an’anaviy retsept” kabi iboralar aynan shunday nodal nuqtalar bo’lib xizmat qilishi mumkin – ular muayyan mafkuraviy va madaniy identitetni qurishda tayanch bo’luvchi markaziy belgilar sifatida faoliyat yuritadi. Bu nuqtai nazardan gastronomik diskurs

---

<sup>7</sup> Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: Iskusstvo, 1979. – B. 241-242.

<sup>8</sup> Laclau E., Mouffe C. Hegemony and Socialist Strategy: Towards a Radical Democratic Politics. – London: Verso, 1985. – B. 112.

nafaqat ovqatlanish bilan, balki milliy o‘zlikni shakllantirish va siyosiy-madaniy da’volar bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Diskursning ushbu kognitiv, ijtimoiy, pragmatik va kommunikativ qirralari uning xususiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan gastronomik diskursni tahlil qilish uchun mustahkam nazariy baza yaratadi. Gastronomik diskurs (yoki A.V. Olyanich terminologiyasi bo‘yicha “glyuttonik diskurs”) insonning eng fundamental ehtiyojlaridan biri bo‘lgan oziq-ovqat va ovqatlanish jarayoni atrofida shakllangan murakkab semiotik va lingvomadaniy tizimdir. Olyanich glyuttonik diskursni oziq-ovqatni topishdan tortib, uni tayyorlash va iste’mol qilishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oluvchi, o‘ziga xos kognitiv freymmlar va ssenariylarga ega bo‘lgan kommunikativ muhit sifatida ta’riflaydi<sup>9</sup>. Gastronomik diskurs shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, u milliy madaniyatning o‘ziga xos belgilari, etnik guruhning o‘zini o‘zi identifikatsiyasi, ijtimoiy va gender xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi imoishora va lisoniy belgilar tizimidir<sup>10</sup>. G.G. Pocheptsov kabi olimlar kommunikatsiya nazariyasida oziq-ovqatning nafaqat biologik, balki ijtimoiy aloqalarni o‘rnatuvchi va mustahkamlovchi vosita sifatidagi rolini ko‘rsatib beradilar. Ovqatlanish stoli atrofidagi muloqot, taom tortish tartibi va mehmondo‘stlik qoidalari jamiyatdagi ierarxiya va munosabatlarni ifodalaydi.

Fransuz sotsiologi Pierre Bourdieu o‘zining “Distinction” (Tafovut) asarida gastronomik did va iste’mol madaniyati ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi farqlarni qanday qilib qonuniylashtirishini chuqur tahlil qilgan. Bourdieu ta’kidlashicha, oziq-ovqat tanlovi va uni iste’mol qilish uslubi (gastronomik diskursning amaliy ko‘rinishi) insonning ijtimoiy kapitali va “habitus”ini namoyon qiladi<sup>11</sup>. Shu nuqtai nazardan, gastronomik diskurs faqatgina retseptlar yoki taomnomalar yig‘indisi emas, balki jamiyatdagi madaniy kodlar,

---

<sup>9</sup> Olyanich A.V. Prezentatsionnaya teoriya diskursa. – Moskva: Gnozis, 2004. – B. 397.

<sup>10</sup> Sanakulova M.Q. Ingliz va o‘zbek gastronomik diskurslarining semiotik xususiyatlari. – Navoiy: Oriental Renaissance, 2023. – B. 794.

<sup>11</sup> Bourdieu P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. – Cambridge: Harvard University Press, 1984. – B. 175.

qadriyatlar va ijtimoiy maqomni uzatuvchi kuchli kommunikativ vositadir. Bourdieu konsepsiyasida “gastronomik kapital” tushunchasi nafaqat iqtisodiy imkoniyatlar, balki ma’lum bir taomlar haqida bilim va ularning lazzatini seza olish layoqati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bu esa gastronomik diskursni ijtimoiy tengsizlikning ko‘zga ko‘rinmas, lekin ta’sirli mexanizmlaridan biriga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslik paradigmasida “diskurs” tushunchasi gapdan yuqori turuvchi, ijtimoiy, kognitiv va pragmatik omillarni o‘z ichiga oluvchi murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin etiladi. Z.Harrisdan boshlab T.A. van Dijkgacha bo‘lgan nazariy evolyutsiya shuni ko‘rsatadiki, diskurs nafaqat lingvistik tuzilma, balki insonning ijtimoiy va madaniy hayotini shakllantiradigan amaliyot sifatida o‘rganilishi lozim. Diskurs nazariyasining falsafiy asoslarini shakllantirgan E.Benveniste, M.Foucault, J.Habermas va L.Wittgenstein kabi mutafakkirlarning qarashlari tilni ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat va bilim ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar gastronomik diskursni ham madaniy va mafkuraviy konstruktsiya sifatida o‘rganishda metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

M.Baxtinning dialogizm va nutq janrlari nazariyasiga ko‘ra, gastronomik diskurs o‘ziga xos nutq janrlarini — retsept, taomnoma, oziq-ovqat sharhi va ijtimoiy tarmoq postlarini — birlashtiradi. Ularning har biri o‘ziga xos kommunikativ niyat, uslub va ijtimoiy-madaniy kontekstga ega bo‘lib, o‘zaro dialogik munosabatda rivojlanib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

- 1.Ibotova M.K. Diskurs tushunchasi va unga lingvistik yondashuvlar. – Buxoro: Scientific Progress, 2023. – B. 45.
2. Harris Z.S. Discourse Analysis. – Baltimore: Linguistic Society of America, 1952. – B. 1–30.
3. Benveniste E. Subjectivity in Language. In Problems in General Linguistics. – Miami: University of Miami Press, 1971. – B. 225.

4. Foucault M. *The Archaeology of Knowledge*. – London: Routledge, 1972. – B. 49.
5. Habermas J. *The Theory of Communicative Action, Vol. 1*. – Boston: Beacon Press, 1984. – B. 285.
6. Wittgenstein L. *Philosophische Untersuchungen / Philosophical Investigations*. – Oxford: Blackwell, 1953. – B. 11-12.
7. Baxtin M.M. *Estetika slovesnogo tvorchestva*. – Moskva: Iskusstvo, 1979. – B. 241-242.
8. Laclau E., Mouffe C. *Hegemony and Socialist Strategy: Towards a Radical Democratic Politics*. – London: Verso, 1985. – B. 112.
9. Olyanich A.V. *Prezentatsionnaya teoriya diskursa*. – Moskva: Gnozis, 2004. – B. 397.
10. Sanakulova M.Q. *Ingliz va o‘zbek gastronomik diskurslarining semiotik xususiyatlari*. – Navoiy: Oriental Renaissance, 2023. – B. 794.
11. Bourdieu P. *Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste*. – Cambridge: Harvard University Press, 1984. – B. 175